

TALONCHILIK JINOYATLARINI SODIR QILISH USULLARI, HOZIRGI KUNDAGI HOLATI, YURIDIK HUQUQIY TAVSIFI

To'liyev Asilbek Sherimbat o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi kursanti

Annatatsiya: *Ushbu maqola shu haqida, talonchilik jinoyatining yuridik-huquqiy tahlili hamda bugungi kundagi holati talonchilik jinoyatining tushunchasi. Ushbu jinoyatning sodir etilishi usullari, sodir etishga imkon bergan shart-sharoitlar hamda sabablar talonchilik jinoyatining oldini olish va fosh etish borasida xorjiji tajribalar va qonunchiligidagi holat bor huquqni muhofaza qiluvchi o'rganlar bu turdagijiyonatlarni oldini olish va fosh etish borasida olib borayotgan chora-tadbirlar xususida yoziladi.*

Аннотация: Данная статья посвящена судебно-правовому анализу преступления разбоя и понятия преступления разбоя в его современном состоянии. Написаны способы совершения данного преступления: условия и причины, позволившие его совершить, зарубежный опыт предотвращения и раскрытия преступления грабежа, а также меры, принимаемые правоохранительными органами по предотвращению и раскрытию данного вида преступлений.

Annotation: *This article is about the legal-legal analysis of the crime of robbery and the concept of the crime of robbery in its current state. The methods of committing this crime: the conditions and reasons that allowed it to be committed, foreign experiences in preventing and uncovering the crime of robbery, and the measures taken by law enforcement agencies to prevent and uncover this type of crime. is written.*

KIRISH

Barchamizga ma'lumki bugungi kunda davlatimiz rahbari boshchiligidagi amalgalari oshirilayotgan jamiyatimizning barcha jabhalaridagi islohatlar xalqimizning tinch-osuda hayotini mustahkamlash, ularning turmush farovanligini yuksaltirish jamiyatda inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan. Mazkur ustuvor vazifalardan kelib chiqib so'nggi yillarda IIO faoliyatini ham tubdan isloq qillishi, sohani zamon talabiga hamo-hang ravishda rivojlantirib borish ishlarini jadallik bilan amalgalari oshirilmoqda. Ichki ishlar organlarining mahalla fuqarolar yig'inalari hamda jamoatchilik tuzulmalariaro bilan hamkorligi yangi bosqichga ko'tarildi. Mahalla yettiligi faoliyati yolga qo'yildi. Yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar zaminida avvalo inson manfaatlari, uning huquq va erkinliklari turibdi. Islohatlarni "xalq manfaatlari xizmat qilish-oliy burch" tamoyili asosida tashkil etish, bu borada davlat organlari va jamoatchilik tuzulmalari o'rtasidagi hamakorlik yanada mustahkamlash jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda Prezidentimiz rahbarligida amalgalari oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar fuqarolarimizning tinch-osuda hayotini ta'minlash, turmush farovanligini yuksaltirish, jamiyatda inson qadrini ulug'lashga qaratilgan. Davlatimiz rahbari: "Mahalla tinch bo'lsa butun yurt tinch bo'ladi, mahalla obod bo'lsa, butun mamlakatimiz farovon bo'ladi" deya alohida ta'kidlagan edi. Hozirgi kunda profilaktik chora-tadbirlarining "Obod va xavfsiz"

mahalla” tamoyili asosida har bir mahalla, oila va shaxs kesimida tashkil etilayotganini huquqbazarliklarning sabablarini aniqlash, ularni o’z vaqtida bartaraf etish, aholi bilan muloqot qilish samarali natija bermoqda.

Rivojalanib borayotgan mamlakatimiz iqtisodiyotiga turli ko’rinishdagi huquqbazarliklar salbiy ta’sir ko’rsatmoqda. Jumladan amaldagi jinoyat ko’deksining 166-moddasida “Talonchilik, ya’ni o’zganing mulkini ochiqdan-ochiq talon-taroj qilish”1da qaraladi. Bundan tashqari 2023-yil 30-aprel kuni o’tkazilgan umumxalq referendumi asosida qabul qilingan yangi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning XII bob, 65-moddasida “Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O’zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etidi”2. O’zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta’minlanadi.

Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdan o’z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas deya ta’kidlab o’tilgan. Bundan ko’rinib turbdiki talonchilik jinoyati aynan shu huquqlarga nisbatan tajovuz qiladi. 1990-yil 31-oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasida mulkchilik”3 to’g’risidagi qonunda. Mulkdan o’ziga qarashli mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquqini boshqa shaxslarga berishga faqat o’zi haqlidir. Mulkdan faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum bo’lishi mumkin”ligi belgilangan. Bundan tashqari BMTning inson huquq umumiyligi deklaratsiyasi 17-moddasida har bir inson yakka holda, shuningdek boshqalar bilan bирgalikda mulkka egalik huquqi ega, hech kim zo’ravonlik bilan O’zbekiston mulkidan mahrum etilishi mumkin emas. Talonchilik jinoyatining ijtimoiy xavfliligi uning jabrlanuvchi mulkka egalik qilayotgan shaxslarning erkiga xilof ravishda, ochiqdan-ochiq hayot yoki sog’liq uchun xavfli bo’lmagan zo’rlik ishlatib o’zgani mulkiga egalik qilish, mulkni tasarruf etish yoki undan foydalanish huquqidan mahrum qilinishida ifodalanadi.

Aybdor harakatlarni oshkora sodir etishi va o’zida zo’rlik ishlatishning real tahdidi, mavjudligiga ko’ra talonchilikning ijtimoiy xavfliligi talon-tarojning boshqa shakllariga nisbatan yuqorida. Erkin muomalasi cheklanmagan ayblanuvchiga tegishli bo’lmagan moddiy qiymatga ega, inson mehnati singgan, ko’char buyumlar, hayvonlar elektron mablag’lar talonchilik predmeti hisoblanadi.

Talonchilik jinoyatining obyekti-shaxsiy mulkini oshkora talon taroj qilishidan muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Jinoyatning obyektiv tomoni jinoyat qonuni bilan qo’riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zar yetkazuvchi ijtimoiy xavfli qilishining tashqi tomonining tasdiqlovchi belgilar, ya’ni jinoyatni sodir qilish usuli hisob.

Jinoyatning subekti ushbu jinoyatni sodir etgan, aqli raso, javobgarlikka tortish yoshiga yetgan, jismoniy shaxsdir.

Subyektiv tomoni aybining qaysi shakli o’zganing mulkiga ochiqdan-ochiq talon-taroj qilish ijtimoiy xavfli ekanligini biladi. O’zganing mulkini ochiqdan-ochiq talon-taroj oqibatida jabrlanuvchiga mulkga zarar yetishi mumkinligiga ko’zi yetadi va mulkiy zarar yetkazishni istaydi.

O’zbekiston respublikasi Oliy sud plenumming “O’zgalar mulkini o’g’irlik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-taroj qilish jinoyat ishlari bo’yicha sud amaliyoti to’g’risida”4gi qarorida o’zgalar mulkini talonchilik bialan egallangan va aybdor bu mulkdan o’z xohshicha

foydalinish yoki uni ishlatish imkoniyatiga ega bo'lgan vaqtida boshlab tugallangan hisoblanadi.

Talonchilik jinoyatining obyekti- shaxsning mulkini oshkor talon-taroj qilinishidan muhofaza qiliuvchi ijtimoiy munosabatlар hisoblanadi.

Jinoyatning obyekti- tomoni jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazuvchi ijtimoiy xavfli qilinishining tashqi tomonini tasdiqlovchi belgilar, ya'ni jinoyatni sodir qilish usuli hisob. Jinoyatning subyekti ushbu jinoyatni sodir etgan, aqli raso, javobgarlikka tortish yoshiga yetgan, jismoniy shaxsdir. Subyekti tomoni aybdorning qasd shakli ifodalanadi ya'ni shaxs o'zgанин mulkini ochiqdan-ochiq talon-taroj qilish ijtimoiy xavfli akanligini biladi, o'zgанин mulkini ochiqdan-ochiq talon-taroj oqibatida jabrlanuvchiga mulkiga zarar yetishi mumkinligiga ko'zi yetadi va mulkiy zarar yetishini itaydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sud plenumining "O'zgalar mulkini o'g'irlik talon-taroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorida o'zgalar mulkini talonchilik bilan egallangan va aybdor bu mulkdan o'z xohishicha foydalinish yoki uni ishlatish imkoniyatiga ega bo'lgan vaqtadan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida talonchilik jinoyati asosan ko'chada, bozorlarda uy-joy, omborxona yoki boshqa xonalarda, transport vositalari ichida, ta'lim muassasalari binolari va hududlarida, dam olish maskanlari, istirohat bog'larda, kafe oshxona, bor restaran, to'yxonalarda, ovloq hududlarda, korxona, tashkilot, mussasa va boshqa joylarda sodir etilishi mumki.

Tahlillarga ko'ra: talonchilik jinoyatning sodir etilishi sabablari va imkon bergan shart-sharoitlar jabrlanuvchining xilvat joylarga bir o'zi chiqishi va ularning sodda ishonuvchanligi, jinoyat sodir etgan shaxs oldida jismoniy-ruhiy ojizligi

- jabrlanuvchining shaxsning ehtiyojkorligi yo'qligi ya'ni qimmatbaho taqinchoq taqishi, pul, telefon va boshqa moddiy boyliklarini nomoyishkorona olib yurishi,

- jabrlanuvchilarning aksariyatining faqat o'rta ma'lumotga ega ekanligi ijtimoiy-huquqiy ongning yetarli darajada rivojlanmaganligi;

- kuzatuv kameralari o'rnatilgan aholi serqatnov va gavjum ko'chalar esa tungi vaqtarda chiroqlar bilan yetarli yoritilmaganligi oqibatida;

- noqonuniy kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalari va telefon aparatlarini sotish nuqtalarining muvjudligi;

- tuzalish yo'liga o'tmagan shaxslar ustidan nazoratining to'liq ta'minlamaganligi hamda ijtimoiy moslashtirishni yetarli darajada olib borilmaganligi;

- talonchilik jinoyati uchun tayinlangan jazodan ko'zlangan maqsadiga erishilmaganligi shungdek ushbu taoifadagi shaxslar axloqan tuzalmasdan turib jazodan muddatidan ilgari ozod qilinishi;

- jinoyatchi shaxs nosag'lom muhita tarbiyalanishi;

- moddiy yetishmovchilik oqibatida;

- o'zaro kelishmovchilik va niso oqibatida;

- voyaga yetmagan shaxslar bilan profilaktik chora-tadbirlar yetarli darajada olib borilmaganligi;

- ijtimoiy profilaktikaning yetarli darajada olib borilmaganligi;

- jabrlanuvchining ishonuvchanlik va beparvoligi natijasida sodir etilishi mumkin;

Hozirgi davrda ayrim davlatlar jinoyat qonunchiligidagi talonchilik tartibining ba'zi belgilari, javobgarligi og'irlashtiruvchi holatlar va ularning ijtimoiy xavflilik darajasida farqlar mavjudligi.

Qirg'iz Respublikasi: Markaziy osiyo davlatlari ichida so'nggi yillarda o'zining Jinoyat kodeksini yangi tahrirda qabul qilgan davlat Qirg'iz Respublikasi hisoblanadi. Qirg'iz Respublikasi Jinoyat Ko'dekisining "Mulkka qarshi jinoyatlar" nomli 30-bobning 210-moddasida talonchilik uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, "Talonchilik o'zganing mulkini oshkora egallash" talonchilik hisoblanadi. Mazkur ta'rif bilan qonun chiqaruvchi qilmishini tugallanish vaqtini mulk jabrlanuvchidan aybdorga o'tgan vaqt deb belgilanmoqda. Mazkur yondashuv talonchilikni kvalifikatsiya qilish jarayonida uning tugallanish vaqtini aniqlash, aybdorda mulkdan erkin tasarruf etish imkoniyatini mavjud bo'lgan, bo'limganligini aniqlash zarur emas.

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat Ko'dekisining 161-moddasi talonchilik uchun javobgarligi belgilangan. Modda uch qismidan iborat bo'lib, birinchi qismi o'rtacha og'ir jinoyat ya'ni to'rt yilgacha ozodlikdan maxrum etish, ikkinchi qismi og'ir jinoyat ya'ni besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish, uchun qismi o'ta og'ir jinoyat ya'ni olti yildan o'n ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkinligi belgilangan.

MDH davlatlari namunaviy JKning "Mulkka va iqtisodiy faoliyatini tartibga solishga qarshi jinoyatlar" nomli XI bo'limning "Mulkka qarshi jinoyatlar" nomli 28-bobining, 245-moddasida talonchilik uchun javobgarlik belgilangan. Ushbu ko'dekisida talonchilik uch qismiga esa og'ir jinoyat sifatida tasniflangan. Talonchilik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi xolatlar sifdatida: bir guruh shaxslar tomonidan; ancha, ko'p va juda ko'p miqdorda; hayot yoki sog'lik uchun xavfli bo'limgan zo'rlik ishlatib yoki shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rkitib; uy-joyiga kirib sodir eshitilsa; ommaviy ocharchilik vaqtida, jinoiy uyushma tomonidan sodir etilishi belgilangan.

Moldova Respublikasi jinoyat kodeksining "Mulkka qarshi jinoyatlar" nomli VI bo'limining 187-moddasida talonchilik uchun javobgarlik belgilangan. Mazkur modda beshta qismidan iborat bo'lib, boshqa shaxsning mulkini oshkora talon-taroj qilish talonchilik hisoblanadi.

Zo'rliksiz talonchilik uchun ikki yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlanishi mumkinligi belgilangan bo'lib, MDH davlatlari orasida zo'rliksiz talonchilik uchun belgilangan eng og'ir sanksiyasi hisoblanadi. Shu bilan birga zo'rlik ishlatib sodir etilgan talonchilik uchun ya'ni moddaning ikkinchi qismida besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlanishi mumkinligini belgilangan bilan, qonun chiqaruvchi zo'rlik ishlatib sodir etilgan va zo'rlik ishlatmasdan sodir etilgan talonchilik uchun javobgarlikni differentsiya qilgan.

Estoniya Respublikasi jinoyat kodeksining "Mulkka qarshi jinoyatlar" nomli oltinchi bo'limining 140-moddasida talonchilik uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatmagan holda, o'zganing mulkini oshkora talon-taroj qilish talonchilik hisoblanadi. Talonchilik tushunchasiga berilgan mazkur ta'rif MDHning boshqa davlatlari JKlarida talonchilikka berilgan tushunchalarining nisbatan keng va tushunarlidir.

Fransiya jinoyat qonuning tahlili, unda boshqa davlatlardan farqli o'laroq mulkiy jinoyatlar aniq farqlanganligini ko'rsatmoqda. Binobarin, Fransiya JKning "mulkka qarshi

jinoyat va qilmishlar” nomli uchinchi kitobida talon-taroj qilish talonchilik, bosqinchilik kabi alohida turlarga ajratilmasdan, umumiy o’g’irlik tushunchasi bilan qamrab olingan va ular bir biridan og’irlashtiruvchi holatlarga ko’ra ya’ni, zo’rlik ishlatish, qurollanganlik, uyushgan guruh belgilarining mavjudligi va ma’lum bir toifadagi jabrlanuvchilarga nisbatan sodir etilganlik bilan farqlangan.

Italiya Jinoyat kodeksi XIII bo’limining I bobi ”Odamlar va ashylarga zo’rlik ishlatib sodir etiladigan mulkka qarshi jinoyatlar” deb nomlangan. Aynan shu bobning 628-moddasida o’zi yoki boshqa shaxslarning noqonuniy foyda olishi maqsadida o’zganing ko’char mulkini mulkdordan zo’rlik yoki tahdid qilish usuli orqali talon-taroj qilgan shaxs talonchilikda aybdor deb topilishi va qonunda 3 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi mumkinligi belgilangan.

Angliyada mulkka qarshi jinoyatlar qoidalari quyidagi normativ hujjalarda aks etgan: 1968 ba 1976 yildagi ”O’g’irlik to’g’risida”gi qonunlar, 1971 yildagi ”Mulkka jinoiy zarar yetkazish to’g’risida”gi qonun 2006 yilda qabul qilingan ”Aldov xususiyatiga ega jinoyatlar to’g’risida”gi qonun. Mazkur qonunlar va boshqa normativ hujjalarga asosan, o’g’irlik, talonchilik, bosqinchilik (burglary), mulkni aldab egallash, tovlamachilik mulkka qarshi jinoyatlar hisoblanadi.

Xitoy xalq respublikasi jinoyat qonunida mulkka qarshi jinoyatlar ”mulkka qarshi jinoyatlar nomli” beshinchi bo’limidan o’rin olgan. Shu bilan birga, qonun chiqaruvchi tomonidan talon-taroj turlarga bo’linmasdan, kvalifikatsiyaga oid belgi va ijtimoiy xavfli oqibatlarga urg’u berilgan.

Kuch ishlatib, majburlab yoki boshqa usullar bilan shaxsiy yoki jamoat mulkini talon-taroj qilgan shaxs uch yildan o’n yilgacha qamoq yoki jarima jazosi bilan jazolanadi (JK 263-modda).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O’zbekiston Respubliksi Konstitutsiyasi yangi tahrirdagi. 2023-yil 30-aprel 65-modda 34-bet

2.O’zbekiston Respubliksi Jinoyat ko’deksi

3.O’zbekiston Respublikasining 1990-yil 31-oktabrdagi ”O’zbekiston Respublikasida mulkchilik to’g’risida” gi O’zbekiston Respublikasi qonunchiligi 152-XII-son qonun.

4.O’zbekiston Respubliksi Jinoyat ko’deksiga ilmiy-amaliy sharh.

5.Talonchilik uchun jinoiy javobgarlik o’quv-uslubiy qo’llanma Toshkent 2023.

6.”Talonchilik jinoyatiga qarshi kurashishni tashkil etish” metodik qo’llanma. Toshkent-2024

7.”Talonchilik jinoyatlarining barvaqt oldini olish bo’yicha hudud metodikasi” Toshkent-2020

8.”O’zgalar mulkini o’g’irlik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-taroj qilish jinoyat ishlari bo’yicha sud amaliyoti to’g’risida”gi O’zbekiston Respubliksi Oliy Sudi plenumining qarori 1999-yil 24-sentabr 19-son.